

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Yo'lbarsova	
Biologiya yo'nalishi talabalarining bioetik madaniyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	219
U.Q.Maqsudov	
Jahon transformatsiyasi sharoitida talabalarning innovatsion va startap loyihalardagi faolligini shakllantirishning pedagogik yo'nalishlari	223
A.A.Shikina	
How does AI contribute to boosting self-esteem among efl learners? A case study of Fergana State and TATU Universities	229
N.K.Abbasova	
Insights, challenges, and needs of esp teachers in the efl context	239
D.B.Abbasova	
Improving written argumentative competence using critical skills technology	243
A.I.Tuychiyev	
Maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyati, vazifalari, harakat sifatlariga mansub kasbiy nazariy bilimlar	246
M.T.Zoxidova	
Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar orqali bo'lajak pedagoglarning mahoratini rivojlantirish	251
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati.....	255
F.O'.Toshboltayev	
Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida AKT integratsiyasining samaradorlikka ta'siri.	259
D.A.Muxammadaminova	
Pedagogik mahorat tushunchasining nazariy asoslari va zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan malaka talablari	262



UO'K: 519.63+517.977

**INTERFAOL METODLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI BO'LAJAK
PEDAGOGLARNING MAHORATINI RIVOJLANTIRISH****РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ
МЕТОДОВ И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ****DEVELOPING THE SKILLS OF FUTURE EDUCATORS THROUGH INTERACTIVE METHODS
AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES****Zoxidova Madina Turg'unboyevna** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning bo'lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim sifatiga ta'siri va samaradorligi muhokama qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется значение интерактивных методов и инновационных технологий в развитии педагогического мастерства будущих педагогов. Рассматривается роль интерактивных методов в повышении активности учащихся, развитии их самостоятельного мышления и формировании практических навыков в современном образовательном процессе. Кроме того, обсуждается влияние и эффективность информационно-коммуникационных технологий, цифровых образовательных платформ и систем искусственного интеллекта на качество образования.

Abstract

This article analyzes the importance of interactive methods and innovative technologies in developing the pedagogical skills of future educators. The role of interactive methods in enhancing student engagement, fostering independent thinking, and developing practical skills in the modern educational process is highlighted. Additionally, the impact and effectiveness of information and communication technologies, digital education platforms, and artificial intelligence systems on the quality of education are discussed.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik mahorat, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, zamonaviy pedagogika, raqamli ta'lim, o'qitish usullari, kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv.

Ключевые слова: интерактивные методы, инновационные технологии, педагогическое мастерство, информационно-коммуникационные технологии, образовательный процесс, современная педагогика, цифровое образование, методы обучения, профессиональная компетентность, инновационный подход.

Key words: Interactive methods, innovative technologies, pedagogical skills, information and communication technologies, educational process, modern pedagogy, digital education, teaching methods, professional competence, innovative approach.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ularning pedagogik mahoratini oshirishdir. Chunki ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining malakasi, didaktik mahorati va innovatsion yondashuvlaridan kelib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlar va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik jarayonning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning mahoratini rivojlantirish innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lim" dasturi doirasida o'qituvchilarning AKT savodxonligini

ILMIY AXBOROT

oshirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilgan[1]. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida interfaol yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish yuqori natijalar bermoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak pedagoglarning mahoratini rivojlantirishda interfaol metodlar ta'limjarayonidagi subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda pedagoglar uchun innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), virtual laboratoriyalar, elektron ta'limplatformalari va sun'iy intellekt tizimlari ta'limjarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga keng imkoniyat yaratadi. Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni tanqidiy tafakkur jarayoniga olib kiradi. Tanqidiy tafakkur texnologiyasining asoschilari S.Temple, K.Meredikt va D.Stilubejdenlar "tanqidiy tafakkurni o'rganish mumkin, ammo siz bilimga qiziquvchan bo'lishingiz, o'zingizga savollar berishingiz va ularga javob topishingiz kerak, deb takidlashgan" [2]

Ushbu maqolada interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi o'rnini, ularning ta'lim jarayonidagi afzalliklari va samaradorligi tahlil qilishga harakat qilamiz.

Interfaol metodlar pedagogik jarayonda o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni faollashtirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar, jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "Rol o'yinlari", o'quvchilarning faolligini oshirishda samarali natijalar beradi[3].

Shuningdek, bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) ta'limjarayoniga jadal kirib kelmoqda[4]. Elektron ta'limplatformalari (Moodle, Google Classroom), virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt tizimlari ta'limsifatini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga, ta'limjarayonini moslashuvchan qilishga imkon yaratadi. Aynan shuning uchun ham, zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratni oshirish uchun innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir[5]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning doimiy o'z ustida ishlashi, reflektiv pedagogika, tahliliy fikrlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta'limda STEAM, CLIL, gamifikatsiya kabi metodlardan foydalanish pedagogik mahoratni rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi[6].

NATIJA VA MUHOKAMA

Innovatsion texnologiyalar - bu ta'limjarayonida yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ilg'or pedagogik yondashuvlar va o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ular ta'limni yanada interaktiv, individual va moslashuvchan qilish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar qo'llanilish darajasi, ahamiyati va ko'rinishiga qarab quyidagicha turlarga ajratilishi mumkin:

1. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) - elektron resurslar, onlayn darsliklar, videodarslar, sun'iy intellekt tizimlari va raqamli o'quv platformalarini o'z ichiga oladi (Moodle, Google Classroom, Khan Academy).

2. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) - o'quvchilarga laboratoriya tajribalarini virtual muhitda bajarish, murakkab mavzularni vizuallashtirish imkonini beradi.

3. Gamifikatsiya - o'yin elementlarini ta'limjarayoniga qo'shish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish.

4. Sun'iy intellekt asosida adaptiv ta'lim- individual yondashuvni qo'llab-quvvatlaydigan algoritmlar (masalan, Duolingo, Coursera kabi platformalar).

5. Robototexnika va STEM yondashuvi - o'quvchilarning amaliy va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[7].

Innovatsion texnologiyalarning ta'limjarayoniga tatbiq etilishi o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga quyidagi yo'llar bilan hissa qo'shadi: ta'limjarayonining samaradorligini oshiradi - interaktiv texnologiyalar orqali darslar qiziqarli va tushunarli bo'ladi; o'qituvchilarning

kasbiy rivojlanishidagi o'zni - onlayn kurslar va vebinarlar orqali pedagoglar o'z bilimlarini doimiy yangilab borishlari mumkin; individual yondashuv imkoniyati - har bir o'quvchining o'ziga mos ta'limdasturini ishlab chiqish imkoniyati ortadi; o'qitish jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish - texnologiyalar pedagoglarga innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi.

Seymour Papert, "Konstruksionizm" nazariyasi asoschisi bo'lib, u bolalar kompyuter texnologiyalari orqali mustaqil bilim olishlari mumkinligini ta'kidlaydi. Albatta, yoshlarni kompyuterdan, telefondan unumli foydalanishayotganiga har doim ham ko'zimiz tushmaydi, ko'pchilik nazdida bunady vositalar faqatgina bolalarimizning vaqtini behudaga sovurishdek ko'rinadi, go'yo. Aynan shu joyida olimning fikriga qo'shimcha tarzda aytolamanki, yosh avlodda kichiklikdan boshlab texnologiya madaniyatini shakllantirish bugungi raqamli asrda o'ta muhim dolzarbdir, toki ular ma'lumotlar xurujiga uchramasin, ularni ongli ravishda ajrata olsin, va foydalansin. George Siemens esa, "Konnektivizm" nazariyasini ilgari surgan bo'lib, ta'lim jarayonida texnologiyalar yordamida bilim almashish va tarmoqli o'rganishning muhimligini ko'rsatgan. Yana bir olim, Marc Prensky, "Raqamli avlod" nazariyasi orqali zamonaviy o'quvchilar texnologiyalar yordamida yaxshiroq ta'lim olishlarini ta'kidlagan.

Innovatsion texnologiyalar zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim vositasiga aylangan. Ular o'qituvchilarning zamonaviy metodlarni o'zlashtirishiga, ta'limjarayonini samarali tashkil etishiga va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar - bu ta'limjarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol muloqot va hamkorlikka asoslangan o'qitish usullari bo'lib, ular ta'limsamaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu metodlar o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etadi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarni hal qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Quyidagilarni interfaol metodlar sifatida ko'rsatishimiz mumkin:

Aqliy hujum - o'quvchilar erkin fikr yuritib, muayyan masalalar bo'yicha turli g'oyalar taklif qiladi.

Klaster - ma'lum bir mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni tizimli joylashtirish va tahlil qilish.

Debat - o'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi bahsli usul.

Rolli o'yinlar - o'quvchilarning turli vaziyatlarni his qilish va ularga mos ravishda harakat qilishiga yordam beruvchi metod[8].

Interfaol metodlardan foydalanish orqali o'qituvchi bir qator natijalarga erishadi. Jumladan: o'qituvchi o'quvchilarni faollikka chorlab, ularning qiziqishini oshirishga erishadi; interfaol usullar o'quvchilarning mustaqil bilim olish va fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi; motivatsiyani oshiradi - ta'limqiziqarli bo'lganda, o'quvchilar bilim olish jarayonida ko'proq ishtirok etadi; o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini oshirish orqali zamonaviy ta'limtexnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Vygotsky "madaniy-tarixiy nazariya" asosida interfaol ta'limning ahamiyatini ta'kidlab, o'quvchilarning rivojlanishi ijtimoiy muloqot orqali sodir bo'lishini isbotladi. U "yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) nazariyasi orqali o'quvchilar faqat mustaqil emas, balki interfaol muloqot orqali yanada samarali o'rganishini ko'rsatgan[9].

Deweyning "Tajriba va ta'lim" nazariyasi esa interfaol ta'limmetodlariga asos yaratib, o'quvchilar o'z tajribalariga tayanib o'qitilishining muhimligini ta'kidlaydi.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchining kasbiy bilim va ko'nikmalar majmui bo'lib, u samarali ta'limberish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratni oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va psixologik yondashuvlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi o'zni muhimdir. Zamonaviy ta'limjarayonida o'qituvchidan nafaqat nazariy bilim, balki interaktiv yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar o'quvchilarni ta'limjarayoniga faol jalb etadi, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalar esa ta'limjarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qiladi.

ILMIY AXBOROT

AKT, gamifikatsiya, sun'iy intellekt tizimlari va raqamli platformalar o'qitishning yangi darajasini ta'minlaydi.

Pedagogik mahoratni oshirish uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi, ta'limjarayonida samarali kommunikatsiya va psixologik yondashuvlarni qo'llashi zarur. Zamonaviy ta'limning asosiy talabi - o'quvchilarni faollikka, mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga o'rgatishdir. Shu sababli, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Kelajakda pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etish, xalqaro tajribani o'rganish va innovatsion ta'limtizimlarini ishlab chiqish o'z dolzarbligini also yo'qotmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi -O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limtizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni. Qonun hujjatlari to'plami milliy bazasi <https://lex.uz/>
2. Mamadjanova N.A. boshlang'ich sinf ingliz ta'limi jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiya avtoreferati. Namangan -2022.- B.11-14
3. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Dewey J. (1933). How We Think. D.C. Heath & Co.
5. Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Allyn & Bacon.
6. Siemens G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.
7. Prensky M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. Corwin Press.
8. Brookfield S. (1995). Becoming a Critically Reflective Teacher. Jossey-Bass.
9. Makarenko A.S. (1988). Pedagogik Poemalar. Moskva: Pedagogika.